



**PEDAGOGIK FAOLIYAT - YOSHLAR ONGIDA VATANGA BO'LGAN  
MEHR-MUHABBAT HAMDA YUKSAK VATANPARVARLIK RUHINI  
SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11404101>

**Xasanov Nurmuhammad Xaydarali o'g'li**

*FarDu Harbiy ta'lif magistri 2-kurs*

**ANATATSIYA**

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida barcha sohalar kabi ma'naviy sohada ham yangicha yondashuvlar va munosabatlar shakllanmoqda. Zero, bu sohada bajariladigan ishlar, tadqiq qilishga muhtoj muammolar ancha yillardan

beri yig'ilib kelmoqda edi. Bunday dolzarb vazifalardan biri vatanparvarlik tarbiyasidir. Yoshlarni turli zararli diniy oqimlardan, «ommaviy madaniyat» niqobi ostida kirib kelayotgan buzg'unchi va yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, to'g'ri yo'lidan adashgan fuqarolarni sog'lom turmush tarziga qaytarish maqsadida olib

borilayotgan ishlar biz kutgan natijani bermayapti [25;140]. Shuning uchun ham yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda vatanparvarlik tarbiyasi muhim ekanligini,

uni shakllantirish va takomillashtirish insonning tug'ilishidan to umrining oxirigacha davom etadigan jarayon ekanligini uqtirib o'rgatib borishimiz lozim. Yoshlarni Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatini his qilishga o'rgatish, qonunlarga rioya etish fazilatlarini qaror toptirishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar**

Davlatimiz, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari , armiyamiz, vatanparvarlik, shug'ullanish Vatanparvarlik, yangicha, tushunchalar, avlodla, jarayonlar, yoshlar, bosqich, Globalizm, axborot vositalari, tizimi, ma'lumot.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan vatan himoyachilariga bayram tabrigida hozirgi vaqtida jahonda va mintaqamizda harbiy-siyosiy vaziyat keskin o'zgarganligi, milliy va global xavfsizlik sohasida xatar va tahdidlar tobora kuchayib borayotganligi, ana shunday o'ta mas'uliyatlari vaziyatda milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va takomillashtirish borasida puxta o'ylangan va izchil harakatlarni davom ettirish zarurligiga alohida e'tibor qaratdi. Ayniqsa, yoshlarga vatanparvarlik ruhida ta'lif va tarbiya berish bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlarning dolzarb ahamiyati hamda barcha bo'g'indagi professional harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va modernizatsiyalash, tayyorlanadigan harbiy kadrlarning umumiy



madaniyatini oshirish, ularning dam olishi va sport bilan shug'ullanishi uchun barcha qulay sharoitlarni yaratish, bu jarayonda harbiy bilim yurtida haqiqatan ham ta'lif olishga munosib, yuksak aql-zakovat va yetakchilik qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlarni aniqlash uchun ularni o'qishga tanlab olishda talabni oshirish zarurligiga alohida e'tibor qaratildi [16]. Zero, «farzandlarimizni o'zimiz asramasak, o'zimiz avaylamasak, o'zimiz tarbiyalamasak, birov chetdan kelib bu ishni biz uchun bajarib bermaydi. Shu sababli har bir ofitser ta'sirchan shakl va usullardan foydalanim, adashgan yoshlarni to'g'ri yo'lga qaytarishni harbiy xizmat kabi o'zining muhim burchi deb bilishi kerak» [25;141].

Shunday ekan, ta'lif tarbiya sohasida mehnat qilayotgan har bir pedagog va mas'ul tarbiyachilar, yosh talabalarni avvalo, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ularning ongi va qalbiga, ona-Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat g'oyalarini chuqur singdirishga muhim vazifa sifatida qarash lozim. Aslida chinakam vatanparvarlik fazilatlari oilada, mahallada, o'quv dargohlarida, ota-onalar, pedagoglar tomonidan boshqariladi, shakllantiriladi. Talabalarga pedagoglar tomonidan berayotgan ma'lumotlardan shuni anglash lozimki, o'zlari Vatanni qanchalik sevsalar, ushbu tuyg'uni talabalarga shunchalik singdira oladilar [86;130-131]. Ezgulik, yaxshilik, yaratuvchanlik, fidoyilik, mardlik, sadoqat, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlar kishida vatanparvarlik degan umuminsoniy qadriyatni shakllantiradigan omillar bo'lib ular ta'lif tarbiyamizda qaror topadi (2.1-rasm).

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017.
2. «Ta'lif to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – Toshkent, O'zbekiston, 23.09.2020. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.05.2018 y., 06/18/5430/1164-sон).
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. –Toshkent: O'zbekiston, 463-I-сон 29.08.1997.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF-5106-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 27-son, 607-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 105-1-sonli «O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi» to'g'risidagi Qarori 1995 yil 30 avgust.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-II-son «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qarori. 2002 yil 12 dekabr.



7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy xizmatni o'tash shart-sharoitlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4054 sonli Farmoni 2008 yil 20 noyabr.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son «Ma'nnaviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishnin yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi Qarori. // Xalq so'zi. 2017 yil 28 iyun.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909 sonli Qarori / Xalq so'zi. 2017 yil 16 may.